

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Tasdiqlayman”

**O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
instituti rektori**



“Kelishildi”

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“Kelishildi”

**O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211200-Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi)
ta'lim yo'nalishi uchun**

- 1. Rejissura fanidan**
- 2. Aktyorlik mahorati fanidan**

Toshkent-2025

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv- uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2025 - yil 20 - may 10 -sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- | | | |
|-------------|---|---|
| D.Hojimatov | – | O'zDSMI “Kino, televideniye va radio rejissorligi” kafedrasi mudiri |
| F.Fayziyeva | – | O'zDSMI “Kino, televideniye va radio rejissorligi” kafedrasi dotsenti |

Taqrizchilar:

- | | | |
|-------------|---|--|
| S.A.Rasulov | – | O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, “Kino, televideniye va radio rejissorligi” kafedrasi, professori v.b |
| M.E.Erkinov | – | “Ramz” kinostudiyasi rahbari, “Shuhrat” medali sohibi |

Kirish

60211200 – Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni dasturi va imtihonlar me'yoriy - huquqiy hujjatlar asosida shakllantiriladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar, har bir ixtisos uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi, Institut qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalar ko'rsatiladi.

60211200 – Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi masofaviy ta'lim shakliga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, yo'nalishidagi fikrlash qobiliyatiga, asarni tanlash va sahnalashtirilishida zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish iqtidoriga ijroga ega bo'lishi kerak.

Fanning maqsadi va vazifalari

60211200 – Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning rejissyorlik san'atining asosi hisoblangan aktyorlik mahorati va suhbat natijalari orqali amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar, badiiy fikrlay olishi, asarning tasviriy va ovoqli yechimi hamda aktyorlar ijrosidagi obrazli xissiy holat va jarayonlari ustida ishlashi va uning ijro mukammalligini seza bilishi, kino va televideniye ijodiy mahsulotlarini ramziy timsoli yechimini belgilashi, maydon, makon, marom va zamon birligini his eta olishi shart.

Rejissyor aktyorlik mahorati, murabbiylik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi bilan birga siyosiy va ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan xabardor bo'lmog'i lozim.

Rejissura fani bo'yicha

Rejissurasi fanidan kirish imtihonida abituriyent savollarga og'zaki javob berishi kerak. Suhbat keng doiradagi savollar bo'yicha o'tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo'yicha abituriyentning fikrlashi, bilim doirasi, qiziqishi, kasbiy tasavvuri, tekshiriladi.

Suhbat jarayonida o'zbek va jahon kinematografiya namoyondalari ijodi, o'zbek kinno san'atidagi yuksak asarlar, tasviriy va boshqa san'at turlari, o'zbek va jahon adabiyotiga oid savollar ham beriladi.

- kino san'atining va rejissyorlik kasbining paydo bo'lishi tarixini bilishi;
- kino janrlari va ularning xususiyatlari;
- kinodramaturgiya haqida tushunchalarga ega bo'lishi;
- jahon kinosida ijod qilib kelayotgan rejissorlarni bilishi;
- respublika kino va televideniye tashkilotlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishi.
- rejissurada ijodiy va tashkiliy jarayolar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- rejissyorlik san'atining boshqa san'at turlariga ta'siri va aloqasi;
- badiiy tasviriy san'at asarlarini yaratish va ularning ijodiy qiymati funksiyasiga doir boshlang'ich bilim, tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishi;
- rejissura san'atining badiiy estetikasidagi yetakchilik funksiyasi borasida tasavvurga ega ekanligi tekshiriladi.

Suhbat - o'qishga kirayotgan shaxsni ijodiy maylini aniqlashga, davlatimizning ichki va tashqi siyosati borasidagi bilimlarini to'g'ri baholashga, madaniyat va san'at sohasidagi izchil ijobiy o'zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar haqidagi tushunchasiga, teatr va kino san'ati bo'yicha asosiy savollarga to'g'ri oriyentatsiya qila olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, o'zi yoqtirgan rejissyorning ijodiy faoliyati haqida fikr so'raladi.

Aktyorlik mahorati fani boyicha

Aktyorlik mahorati bo'yicha imtihonlarda, o'qishga kirayotgan abituriyent turli xil janrdagi adabiy asarlarni ijro qilishi kerak, she'r, masal, qisqa hikoyalar, prozaik asardan hajviy parcha, monolog o'qish kerak. Ko'proq klassik, zamonaviy, milliy va chet el adabiyoti namunalaridan ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Ovoz va nutqning tekshiruv, sahna nutqi pedagoglari tomonidan o'tkaziladi. Sog'lom ovozning mavjudligi, organik yetishmovchiliklarining yo'qligi o'rganiladi.

Ijro etiladigan asarlar bir-biridan janr va mazmuni bo'yicha ajralib turishi kerak, bu narsa abituriyentning qobiliyatini va ijodiy diapazonining kengligini chiqarishga imkoniyat yaratadi,

Abituriyent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- 1) masal
- 2) monolog
- 3) she'r
- 4) qo'shiq
- 5) raqs
- 6) hayvonot olami (hayvonot xulq atvori) - kuzatishlar asosida etyud
- 7) yakka etyud - (abituriyentning yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqea ko'rinish).

Bundan tashqari abituriyent qiziqqan sohasi yoki janri bo'yicha o'zi mustaqil tayyorlab kelgan nomerini ham namoyish etishi mumkin. Masalan:

- 1) plastika
- 2) pantomima
- 3) buyumlar jonlanishi - etyud
- 4) parodiya (taqlid san'ati)
- 5) musiqa san'ati

Bundan tashqari imtihon oluvchi tomonidan, tempo-ritm, diqqat, reaksiya, xotira va hokazolarni tekshirish uchun mashqlar beriladi.

Imtihondan o'tayotganda berilgan shart-sharoit bo'yicha etyud bajarish topshirig'i ham beriladi, bu narsa uni badiha qilish borasidagi qobiliyatini, hissiyotli ma'nodorlik darajasini tekshirishga imkoniyat beradi.

Imtihonda ijro qilinayotgan asarni tubdan tushunish, eshitayotganlarni qiziqtirish, o'ziga jalb qilish, tasavvur qila olishi, kuzatuvchanligi, ta'sirchanlik va ehtirosi, obrazli fikr yuritish qobiliyati tekshiriladi. Qo'shiq, murakkab bo'lmagan raqs harakatlari bilan birga qo'shib ijro qilinishi mumkin. Sahnaviy nutq, kuylash, sahnaviy harakat, raqs va boshqalar jonli tarzda bajariladi.

Shuningdek, nasr, masal, she'r, sonet, yana imtihon oluvchining tanlovi orqali publitsistik asar, hikoya feletonlar kitobdagi matndan o'qib berilishi mumkin.

Abituriyent bilimiga qoyiladigan talablar

Rejissura fanidan abituriyent kino san'atining va rejissyorlik kasbining paydo bo'lishi tarixini bilishi, kino janrlari va ularning xususiyatlari, kinodramaturgiya haqida tushunchalarga ega bo'lishi, o'zbek va jahon kinosida ijod qilib kelayotgan rejissyorlarni bilishi, respublika kino va televideniye tashkilotlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishi, rejissurada ijodiy va tashkiliy jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lishi, rejissyorlik san'atining boshqa san'at turlariga ta'siri va aloqasi, badiiy tasviriy san'at asarlarini yaratish va ularning ijodiy qiymati funksiyasiga doir boshlang'ich bilim, tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishi kerak.

Aktyorlik mahorati fanidan abituriyent mashhur aktyorlar ijodiy faoliyati, aktyor ijtimoiy mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi; jahon va o'zbek aktyorlik san'atining maktab va yo'nalishlarini, aktyorlik ijrosini tahlil qilishi; aktyor etikasini sahna madaniyatini; teatr san'atini, teatr janrlarini, kino va teatrdan obraz yaratish, xarakter va xarakterlilikni bilishi; ijro etilayotgan rolning ichki va tashqi ko'rinishlarini his qilish; rol maqsadi va g'oyasini ochib berishi; asar mavzusi va g'oyasini ijroda ochish; o'zini obraz qiyofasida tutish; sahnaviy muhit haqiqatini yaratish; asar g'oyasini tomoshabinga yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

**Kasbiy (ijodiy) imtihondan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida
baholanadi:
Rejissura fanidan**

T/r	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Odob-axloqi, muomala va estetik didi	9
2.	Dunyoqarashi (siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy bilimlar darajasi)	9
3.	Kino va televideniye sohasidagi bilimlari	10
4.	Mantiqiy va ijodiy fikrlash	9
5.	Kino va televizion film va ko'rsatuvlar to'g'risidagi tushunchalari	10
6.	Shaxsning o'ziga xosligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy-axloqiy xislatlari	10
7.	Musiqa, tasvir, so'z, videotexnika, yorug'likning filmdagi tutgan o'rni haqidagi bilimlari	9
8.	Qat'iyat va ishonтира olish qobiliyati	7
9.	Asarni rejissyorlik tahlil qilish qobiliyati	10
10.	Boshlovchilik va tashkilotchilik qobiliyati	10
	Jami	93

Aktyorlik mahorati fanidan

T/r	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Plastika, etyud – hayotdan lavha ijrosi	7
2.	Emotsionallik	6
3.	Ijro uslubi va mahorati (masal, monolog, she'r, qo'shiq)	6
4.	Ijodiy tasavvur	7
5.	Artikulyatsiya	6
6.	Diqqat va e'tibor	7
7.	Musiqa va ritmni his qilish	6
8.	Kuzatuvchanlik, hissiy va mushaklar xotirasi	6
9.	Vaziyatni his qilish	6

10.	Nutqiy ravonlik	6
	Jami	63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

60211200 – Rejissyorlik: kino va televideniye rejissyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda yakka tartibda 1 akademik soat vaqti davomida aktyorlik mahoratidan ijodiy ham suhbat imthonini topshiradi. Ijodiy (kasbiy) imthonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo‘lib o‘tadi.

Fan boyicha “Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedrasidan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar jalb qilinadi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy ijodiy imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsagina qabul qilinadi lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017-yil.

3. Aliyev M.. Kino asoslari. –T.: O‘qituvchi nashriyoti, 1994-yil

4. Ubaydullayev A. Oynai jahon istiqbollari. – T. Fan, 1993-yil

5. Muhamedov M. Ustozlar izidan. – T., 2006-yil

6. Hamidova SH. Telerejissyorlik kasbiy ta’limida aktyorlik mahorati. – Toshkent: Musiqqa, 2006-yil

7. Mahamedov M., Fayziyeva F., Avlyayeva V. Televideniye asoslari. – Toshkent, 2018-yil

8. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. Xo‘jayev T. tarjimai. – T.: (qayta nashr) Badiiy adabiyot, 2010-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“KINO TELEVIDENIYE VA RADIO REJISSYORLIGI” KAFEDRASI
60211200 – REJISSYORLIK (KINO TELEVIDENIYE VA REJISSYORLIGI)
BAKALAVIR
TA’LIM YO‘NALISHI UCHUN IJODIY IMTIHONLARNI O‘TKAZISH UCHUN
TUZILGAN DASTURGA
TAQRIZ

Mazkur kasbiy (ijodiy) imtihonlarni baholash mezonlari dasturi
60211200 – Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) ta’lim yo‘nalishi bakalavir bosqichi uchun tayyorgarlik bo‘lib, dasturga kirish, fanning maqsad va vazifalari, abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar, ijodiy imtihonlarni o‘tkazish tartibi, appelyasiya tartibidan iborat. “Kino va televideniya rejissyorligi” ta’lim yo‘nalishida o‘qish uchun talabgor abituriyentlar har tarflama yuqori salohiyatli, O‘zbekiston san’ati, xususan televideniye va kino sohasi haqida atroflicha bilimga ega, shuningdek jamiyat va davlatchilik asoslari, sohada ro‘y berayotgan islohotlardan xabardor, ijodiy potensialini namoyon qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab qilinadi.

“Kino va televideniya rejissyorligi” ta’lim yo‘nalishida tahsil oladigan talabalardan qisqa vaqt ichida rejissyorlik tamoyillarini nazariy va amliy jihatdan mukammal egallab, ekran san’atining barcha turlari ustidan birdek faoliyat olib bora oladigan, dramaturgik materiallarni chuqur talqin va tahlil qila oladigan, rejissyorlik vazifalarini aniq qo‘yib, uni ro‘yobga chiqarish uchun barcha tashkiliy, texnik va ijodiy ko‘nikmalarga ega shaxsga aylanishi lozim. Shuning uchun ijodiy imtihonda talabgorlarning kino va television san’atining negizlarini chuqur anglab, uni ishlab chiqarish faoliyati bilan kompleks tasavvur qilish bilan birga shaxsiy insoniy fazilatlarini, fuqorolik pozitsiyasi mavjudligini tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu dasturga “Kino va televideniya rejissyorligi” ta’lim yo‘nalishiga saralab olish jarayonida abituriyentlardan talab qilinadigan ijtimoiy, siyosiy savodxonlikning barcha kategoriyalari tizimli ravishda o‘ylab chiqilgan va bu jihatdan dastur abituriyentlarni xolison baholashga xizmat qiladi deb hisoblayman.

Dasturni amaliyotga tadbiiq etishni tavsiya qilaman.

“Ramz” kinostudiyasi rahbari:

M.E.Erkinov

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“ KINO, TELEVIDENIYE VA
RADIO REJISSYORLIGI ” KAFEDRASI TOMONIDAN 2024-2025 YILIDA 60211200-
REJISSYORLIK (KINO VA TELEVIDENIYE REJISSYORLIGI) BAKALAVR
TA’LIM YO‘NALISHI UCHUN O‘TKAZILADIGAN IMTIHON DASTURIGA
TAQRIZ

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni baholash mezonlari 60211200 - Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) ta’lim yo‘nalishi uchun tayyorlangan bo‘lib, dasturga kirish, fanning maqsad va vazifalari, abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar, ijodiy imtixonlarni o‘tkazish tartibi, appelyasiya tartibidan iborat.

Mazkur yo‘nalishga hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlar “O‘zbekiston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidolari”ga asosan o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Dasturga kino va televideniye sohasi, o‘zbek va jahon kinosi tarixi, rivoji va bugungi xolati, san’at asarlarini tahlil etishni, ekran san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, shu sohada faoliyat olib borayotgan ijodkorlarning faoliyati, yoritilgan.

Ushbu dastur abituriyentlar uchun kino va televideniye rejissyorligi sohasini mukammal egallashida xizmat qilishi shubhasizdir.

**O‘zDSMI “Kino, televideniye va
radio rejissyorligi” kafedrası
dosenti .**

F.X.Fayziyeva